
So'x tumanida “Soliqchi - ko'makchi” tamoyili asosida amalga oshirilayotgan ishlar



So'x tumanida “Soliqchi - ko'makchi” tamoyili asosida amalga oshirilayotgan ishlar

Xabaringiz bor, joriy yil 16 mart kuni Prezidentimiz Davlat soliq qo'mitasiga tashrif buyurib, soliq sohasini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari tashrif davomida soliq organlari tadbirkorlar bilan uchrashib ularni muammolarini tinglashi, soliq qonunchiligidagi o'zgarishlarni tushuntirishi, ularga ko'makchi bo'lishlari yuzasidan qator topshiriqlar bergan edi.

Mazkur topshiriqlar ijrosi, shuningdek, “Soliqchi-ko'makchi” tamoyili asosida soliq to'lovchilarga yanada sifatli xizmat ko'rsatishni ta'minlash maqsadida Farg'ona viloyati davlat soliq boshqarmasi xodimlari tomonidan tadbirkorlar bilan turli ochiq muloqot va uchrashuvlar tashkil etilmoqda, muammolar o'rganilib ijobiy hal etish choralari ko'rilmogda. Shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun muhim bo'lgan qator yo'nalishlarni belgilab olgan holda amaliy yordamlar ko'rsatilmoqda.

Xususan, 2022 yil yanvar-aprel oylari davomida Sux tuman DSI tomonidan 377 ta tadbirkorlik sub'ektlarini qiynayotgan muammolari o'rganildi. Mazkur jarayon davomida ko'maklashish zarur bo'lgan 365-ta tadbirkorlik sub'ektlariga dastlabki buxgalteriyasini yuritish, qulay soliq rejimini tanlash, soliq imtiyozlari va ularni qo'llash tartibini tushuntirish, O'RQ 714-sonli konuni bilan Sux tumanida jami 181 tadbirkorlarga 383500000 ming sum (uch yuz sakson uch million besh yuz) ming sum ortiqcha tulovini Bankdagi xisob raqamiga kaytarish buyicha kumaklashildi. Biz, soliq idoralari xodimlari bundan buyon ham, albatta, Prezidentimiz belgilab berganlaridek, tadbirkorga maslahatchi, ko'makchi va yaqin hamkor sifatida faoliyatimizni davom ettiramiz.

Farid Turaboyev - So'x tumani DSI boshlig'i

2022-06-20 20:01:15